

XORAZMIYNING "MUHABBATNOMA" ASARI VA UNING BADIYATI

Qilicheva Sevinchbonu Alijon qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazmiyning hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar, uning "Muhabbatnoma" asarining poetikasi, janr-shaklga ko'ra rang-barangliklar, shoirning badiiy san'at vositalaridan foydalanish mahorati to'g'risida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Taxallus, tazod, istiora, talmeh, masnaviy, qit'a,

Sharq adabiyotida o'zining mahorati va mohirona qalam tebratishi bilan munosib o'rin egallagan mashhur shoir Xorazmiy bizning ajdodlarimizdan biri ekanligi kishida faxr uyg'otadi. Shoir haqida bizgacha juda kam ma'lumot yetib kelgan. Ularni biz o'zbek adabiyotining nodir asari bo'lmish "Muhabbatnoma"ning muqaddima va xotimasida o'rganishimiz mumkin. Shoirning taxallusiga e'tibor beradigan bo'lsak u Xorazm viloyatida tavallud topgan ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Xorazmiy turkiy adabiyotda nomanavislikni boshlab bergan atoqli shoir edi. U fors-tojik tilida ijod qilishda mahoratli va shu bilan birga qalami o'tkir shoirlardan edi. Xorazmiydan keyin nomanavislikka qo'l urgan shoirlarning ijodi ham ajoyib bo'lgan. Masalan, Xo'jandiyning "Latofatnoma" asari, Amiriyning "Dahnoma"si, Said Ahmadning "Taashshuqnoma" kabi asarlari shular jumlasidandir. Endi Xorazmiyning "Muhabbatnoma" siga qaytadigan bo'lsak, asar o'n bir nomadan iborat. Sakkiz nomasi turkiy tilda yozilgan bo'lsa, uch nomasi esa fors-tojik tilida yozilgan.

Bu xon uzra saloyi oma qildim,
"Muhabbatnoma"ni o'n noma qildim.
Qiloyin ikki bobin porsiy ham
Kim atlas to'n yarashur bo'lsa mu'lan.

Ushbu parchada shoir asarni o'n nomadan iborat qilib yozdim deb aytib o'tgan, lekin keyin esa "Burun o'n dedim, u o'n bir bo'ldi" deb ta'kidlaydi.

"Muhabbatnoma" Xorazmiyning turkiy tilda yozilgan dastlabki yirik asari hisoblanadi. Buni esa biz asarning muqaddimasida keltirilgan parchada bilishimiz mumkin.

Tabassum qildi aytdi "Ey faloniy,
Kelturgil bizga loyiq armug'oni
Ko'ngul bahrinda ko'p gavharlaring bor,

Ichinda porsiy daftarlaring bor.
Muhabbat nardini ko'plardan o'tding
Shakartek til bila olamni tuttung.
Tilarmankim, bizing til bila paydo
Kitobe aylasang bu qish qotimdo.
Kim ush eltek kechar ayyomi foniy,
Jahonda qolsin bizdin armug'oni."

Ko'rinadiki, shoirni Oltin O'rda hukmdori bo'lmish Muhammad Jonibek turkiy tilda asar yozishga undagan. "Muhabbatnoma"ni nechanchi yilda yozilganini asar xotimasidan bilib olamiz.

"Muhabbatnoma" so'zin bunda aytdim,
Qomug'in Sir yoqasida bitdim.
Nazar birla agar Jamsen, har Osaf,
Muhabbatnomani qilsang musharraf.
O'qig'il fotiha dur qibla yoni,
Suvyunsun banda Xorazmiy ravoni.
Bu daftarkim bo'lubtur Misr qandi,
U yetti yuz elli to'rt ichra tugandi...

Yuqoridagi parchadan biz asarni shoir hijriy 754- yilda Sirdaryo yoqasida yozganligi haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

Xorazmiy nodir asari bo'lmish "Muhabbatnoma"da badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalangan. Asar Muhammad Xo'jabekning bazimda o'tirgani va o'sha bazmda "Xusayniya" kuyi chalingani, kuyga hamohang fors-tojik tilida yozilgan g'azalning kuylangani bilan boshlanadi.

Chi mohro'y tu, ey sarvi sarafroz,
Ki memonad ba ro'yat guldahan baz.

Ushbu g'azaldan so'ng " Bayoni voqein aytur" ya'ni bunda shoir asarning yozilishi sabablarini keltiradi va turkiy g'azal bitadi .

Yuzingda ko'rdim, ey jon, bayram oyin ,
Muning shukronasi qurbon bo'layin.

Yuqorida keltirilgan parchada shoir tashbeh, nido san'atidan foydalangan, ya'ni bu yerda "jon " deya yorga murojaat etishda uni shirin jonga o'xshatish ham mujassam. G'azaldan so'ng masnaviy keltirib Muhammad Xo'jabekni ta'riflaydi. "Avvalg'i nomani aytur " qismida lirik oshiq o'z mahubasini tasvirlaydi, unga murojaat qiladi.

" Ko'ngul Shirin so'zingg'a bo'ldi Farhod,
Ko'zung Kashmir jodusig'a ustod."

Ushbu baytda esa shoir talmeh san'atidan foydalangan ya'ni "Farhod ", "Shirin" ,"Kashmir jodusi " so'zlari talmeh bo'lib kelgan. Aniqrog'i Oshiq o'z ma'shuqasining so'zlarini "Shirin"ga o'xshatadi, oshiq ko'ngli esa "Farhod" bo'lib mahubasining

soʻzlariga mahliyo boʻladi. Ikkinchi nomada esa oshiq " tong nasimiga" yaʼni ertalabki shabbodaga murojaat qilib mahbubasiga salom yoʻllaydi.

"Salomim gulga elt , ey tong nasimi,
Kim erur Oy quli , Ahtar nadimi."

Bu baytda tashxis yaʼni jonlantirish sanʼatini koʻrishimiz mumkin. Bu yerda shabboda jonlantirilyapti. Shoir har bir nomadan soʻng masnaviy janrida yozilgan sheʼrlarni keltirib oʻtadi.

Kel ey, soqiy kelturgil jomi Jamni,
Kishining koʻnglidin may yur gʻamni
Kim oshti koʻkka ohim ihtiroqi
Kuyurdi koʻnglimni dilbar firoqi.
Soburdin yaxshi yoʻqtur pasha qilsam,
Bu yoʻlda sabr yoʻq andisha qilsam.

Ushbu masnaviyda ham badiiy sanʼat vositasini koʻrishimiz mumkin, "jomi Jam" birikmasi talmehni yuzaga keltiryapti. Masnaviydan soʻng Xorazmiy uchinchi nomani keltiradi. Bu nomada shoir yorini tasvirleydi. Goʻzallikda Yusufdek ekanligini taʼkidlab oʻtadi. Yettinchi nomada esa shoir tazod sanʼatidan juda mohirona foydalangan.

Qaro kiprigingga kunduz tengolmas,
Saqoqingni yoqang kishi oʻpar bas.

Bu yerda Xorazmiy "qaro"va "kunduz" soʻzlaridan foydalanib tazod sanʼatini hosil qilgan. Shoir bir gʻazalida yorni taʼriflarkan uni Olloh shunday yaratdiki, koʻrklilar ichida xon ekanligi aytib oʻtiladi.

Yaratqon kim tan ichra jon yarotti,
Seni koʻrkluklar uzra xon yarotti.
Quyosh yangligʻ yuzingizni yorutti,
Falakdek bizni sargardon yarotti.

Shoir bu bilan maʼshuqaning dunyoda tengsiz goʻzalligini, yuzini quyoshdek, oʻzining esa falakdek sargardon ekanligini aytib oʻtadi. Ushbu parchada husni taʼlil sanʼatini koʻrishimiz mumkin. Sakkizinchi noma esa fors-tojik tilida yozilgan.

Ayo, ey, oyati lutfi ilohi,
Tu dar iqlimi xubi podshohi.

Xorazmiy asarni fard janrida yozilgan sheʼr bilan yakunlaydi.

Niyozim bu turur sendan nigoro,
Unutma bandani bahri xudoro.

Yaʼni bu fard orqali shoir oʻquvchiga murojaat qilib, nasihat qiladi, Ollohnunutmaslik, barcha bandalarni Olloh yaratganini, Olloh yagona ekanligini aytmoqchi boʻlgan. Xorazmiyning asarlariga oʻz davrida ham hozirgi kunda ham son - sanoqsiz shinavandalar topiladi. Koʻplab kitobxonlar eʼtirofiga sazovor boʻlib

kelmoqda. Adabiyotshunos olim va shoira Nodira Afoqova Xorazmiy va uning asari "Muhabbatnoma" haqida e'tirofga sazovor "Muhabbat xatlari -g'unchadek qat-qat" she'ri orqali e'tiborimni tortgandi.

Bedorman. Oy kabi kezaman yolg'iz.

Hazrat Xorazmiy kirar yodimga.

Balki, uning ohin tinglagan yulduz,

Bu oqshom shudringday qo'nar bog'imga.

Albatta, shoir ko'plab adabiyotshunos olimlarning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Xorazmiy haqidagi izlanishlar hali ancha yillar davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari
2. "O'zbek mumtoz adabiyoti" darslik R.J. Vohidov, H. P. Eshonqulov.
3. Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asarining til xususiyatlari . N. Muratova.